

YOSHLARNI KASB-HUNARGA YO`NALTIRISHNING IJTIMOY- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Nodirova Zulfira Hakimovna

. Urgut tumani 20-maktab amaliyotchi psixologi

ANNOTATSIYA : Mazkur maqolada ta'lim jarayonida o`quvchi yoshlarni kasbga yo`naltirish, kasb tanlash masalalari, shungdek, o`quvchilarni kasbga yo`naltirishda yosh bosqichlarini inobatga olish xususiyatlari bayon qilingan.

**Kalit so`zlar:** ta'lim jarayoni, kasbga yo`naltirish, kasbiy targ`ibot, extiyoj, kasb tanlash.

KIRISH

O`quvchilarni kasbga yo`naltirishda faoliyat masalasi muhim masala hisoblanadi. Jonli mavjudotni muayyan tarzda va muayyan yo`nalishda xarakat qilishga undaydigan ehtiyojlar shaxsning faolligi manbai bo`lib hisoblanadi. Ehtiyoj – jonli mavjudotning xayot kechirishning konkret shart-sharoitlariga uning qaramligini ifoda etuvchi va bu shart-sharoitlarga nisbatan uning faolligini vujudga keltiruvchi xolatidir.

Kishining faolligi ehtiyojlarning qondirilishi jarayonida namoyon bo`ladi. Kishining ehtiyoji uni tarbiyalash jarayonida shakllanadi. Demak, kishining o`z extiyojlarini qondirish jarayoni ijtimoiy taraqqiyot bilan belgilanadigan faoliyat shakli egallashning faol, muayyan maksadga yo`naltirilgan jarayon sifatida aloxida ajralib turadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O`quvchilarni tarbiyasiga nisbatan qo`yayotgan eng muhim talablardan biri ularda mehnat qilish ehtiyojini tarbiyalashdan iboratdir. Mehnat qilishga bo`lgan extiyojning yanada rivojlanishi ishlab chiqarishni rivojlantirish, ko`pgina ishlab chiqarish jarayonlarini maksimal darajada avtomatlashtirish, mexnat sharoitlarini yaxshilash, ish vaqtini qisqartirish natijasida, faqat ijtimoiy foydali





mexnatdagina o'zini namoyon eta oladigan bunyodkorlik kuchlarini jonlantirish oqibatida yuz beradi.

Umumiy ta'lim maktabini isloh qilishning asosiy yo'nalishlarida o'quvchilarning mexnat tarbiyasi va kasbga yo'naltirilishi qanday rol o'ynashiga aloxida e'tibor berilgan. Ehtiyojlar kelib chiqishiga ko'ra tabiiy va madaniy bo'lishi mumkin.

Tabiiy ehtiyojlar kishining faollik kasb etayotgan faoliyati, uning hayoti va uning avlodi hayotini saqlash uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarga bo'ysunganlik ifodalanadi. Madaniy ehtiyojlarda odamning faol faoliyati insoniyat madaniyatining maxsuliga bog'liq ekanligi ifodalanadi; uning ildizlari butunlay kishilik tarixining sarxadlariga borib taqaladi. Ma'naviy jihatdan o'rinli bo'lgan ehtiyoj odam yashayotgan jamiyatning talablariga javob beradigan, ana shu jamiyatda qabul qilingan didlar, baxolar va dunyoqarashga mos keladigan ehtiyojlardir. Ehtiyojlar o'z predmetining xarakteriga ko'ra moddiy va ma'naviy bo'lishi mumkin. Moddiy ehtiyojlarda kishining moddiy madaniyat predmetlariga qaramligi (ovqatlanishiga, kiyinishiga, uy-joyga, maishiy turmush ashyolariga va boshqa narsalarga ehtiyoj sezish) ma'naviy ehtiyojlarda esa ijtimoiy ong maxsuliga tobeligi ifodalanadi. Ma'naviy ehtiyojlar ma'naviy madaniyatni yaratish va o'zgartirishda o'z aksini topadi. O'quvchi o'z fikr-muloxazalari va tuyg'ularini boshqalar bilan baxam ko'rishga gazetalar, kitoblar va jurnallar o'qishga kinofilmlar va spektakllar ko'rishga, muzika tinglashga va shu kabilarga ehtiyot sezadi. Ma'naviy ehtiyojlar moddiy ehtiyojlar bilan uzviy bog'liqdir. Ma'naviy ehtiyojlarni qondirish uchun, moddiy ehtiyojlar predmeti hisoblanmish moddiy narsalar (kitoblar, gazetalar, yozuv va nota qog'ozlari, buyoqlar va shu kabilar) talab qilinishi shubxasiz. Shu tariqa, kelib chiqishiga ko'ra, tabiiy, shu bilan birga predmetiga ko'ra moddiy, kelib chiqishiga ko'ra madaniy hisoblangan ehtiyoj yo moddiy bo'lishi, yo predmetiga ko'ra ma'naviy bo'lishi mumkin.

Agar hayvonlarning xatti-xarakati butunlay atrof muhit bilan belgilansa, kishining faolligi uning ilk yoshligidanoq butun insoniyat tajribasi va jamiyat



talablariga ko'ra yo'naltirilib boriladi. Xatti-xarakatning bu turi shu qadar o'ziga xoslikka egaki, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish psixologiyasida uning atash uchun maxsus termin – kasb faoliyati termini qo'llaniladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Inson kasb faolligida «xarakat», «faoliyat», «xulq» tushunchalari bilan chambarchas bog'liq. SHaxs aynan turli kasb faolliklar doirasida shakllanadi, o'zligini namoyon qiladi xam. Demak, kasb faolligi yoki inson kasb faoliyati passiv jarayon bo'lmay, u ongli ravishda boshqariladigan faol jarayondir. Inson kasb faolligini mujassamlashtiruvchi xarakatlar jarayoni kasb faoliyati deb yuritiladi. Ya'ni, kasb faoliyati – inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, undagi turlituman extiyojlardan kelib chiqadigan, xamda tashqi olamni va o'z-o'zini o'zgartirish va takomillashtirishga qaratilgan uziga xos faollik shaklidir. Bu – moddiy ne'matlar yaratishga qaratilgan mexnat faoliyati, bu – yangi kashfiyotlar ochishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati va shunga o'xshash.

Har qanday kasb faoliyati real shart-sharoitlarda, turli usullarda va turlicha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Qilinayotgan xar bir xarakat ma'lum narsaga – predmetga qartilgani uchun xam, faoliyat predmetli xarakatlar majmui sifatida tasavvur qilinadi. Masalan, ma'ruzani konspekt qilayotgan talabaning predmetli xarakati yozuvga qaratilgan bo'lib, u avvalo o'sha daftardagi yozuvlar soni va sifatida o'zgarishlar qilish orqali bilimlar zaxirasini boyitayotgan bo'ladi. Kasb faoliyatining va uni tashkil etuvchi predmetli xarakatlarni aynan nimalarga yo'naltirilganligiga qarab, avvalo tashki va ichki kasb faoliyati farqlanadi.

Tashki kasbiy faoliyat shaxsni o'rab turgan tashqi muxit va undagi narsa va xodisalarni o'zgartirishga qaratilgan faoliyat bo'lsa, ichki kasbiy faoliyat birinchi navbatda aqliy faoliyat bo'lib, u sof kasbiy psixologik jarayonlarning kechishidan kelib chiqadi. Kelib chiqishi nuqtai nazaridan ichki-aqliy, psixik kasbiy faoliyat tashki predmetli faoliyatdan kelib chiqadi. Dastlab predmetli tashki faoliyat ro'y beradi, tajriba orttirib borilgan sari, asta-sekin bu xarakatlar ichki aqliy jarayonlarga aylanib boradi. Xar qanday sharoitda xam barcha xarakatlar xam ichki psixologik, xam tashqi-muvofiqlik nuqtai nazaridan ong





tomonidan boshqarilib boradi. Xar qanday faoliyat tarkibida xam aqliy, xam jismoniy-motor xarakatlar mujassam bo`ladi. Agar o`ylayotgan odamni ziyraklik bilan kuzatsangiz, undagi etakchi kasbiy faoliyat aqliy bo`lgani bilan uning peshonalari, ko`zlari, xattoki, qo`l xarakatlari juda muxim va jiddiy fikr xususida bir to`xtamga kelolmayotganligidan, yoki yangi fikrni topib undan mamnuniyat xis qilayotganligidan darak beradi. Kasb tanlash faoliyatini oqilona tashkil etish uchun mamlakatimiz qaysi soxa mutaxassislariga muxtojligini nazarda tutish va shunga yarasha maktab o`quvchilarini ularning mayli, intilishi, qiliqishi, imkoniyati, aqliy va jismoniy qobiliyatlariga qarab, hamda u yoki bu kasbga yaroqliligini aniqlab, so`ngra kasbga yo`llash kerak.

Kasbga yo`naltirish - bu ilmiy asoslangan va o`zini kasbini jamiyat ehtiyojlari sifatida, shuningdek, o`zini qiziqish va qobiliyatlarini xisobga olib, turg`un kasb tanlash uchun xayotga kirayotgan yoshlarga yordam beradigan psixolog-pedagog, tibbiyot va davlat tadbirlari tizimidir. Bu tadbirlar jamiyat va shaxs qiziqishlarini umumlashtiradi. Kasbga yo`naltirish tizimi xar bir o`zining vazifalariga va yechish metodlariga ega bo`lgan tizimlar va boshqichlardan iboratdir. Butunligicha u maktab imkoniyati va vazifalari chegarasidan chiqib ketadi, umumdavlat tadbirlariga aylanib, qator boshqa ishtirokchilarning qo`shilishini talab qiladi. Bular kasb-xunar kollejlari, oliy o`quv yurtlari, ishlab chiqarish korxonalari, qishloq xo`jaligi, transport va aloqa tizimi, kasbga yo`naltirish shaxs uchun idividual, shuningdek, jamiyat uchun ahamiyatga egadir.

Bizning qobiliyatimizning aniq bir kasbga adashib tushishi tez-tez shaxsiy muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi. Ammo bu xatolardan shaxsning oz`i, oilasi qiynaladi, shuningdek, butun jamiyat xam qiynaladi.

Yoshlarni kasbga yo`naltirishda faoliyat masalasi muhim masala xisoblanadi. Jonli mavjudotni muayyan tarzda va muayyan yo`nalishda xarakat qilishga undaydigan extiyojlar shaxsning faolligi manbai bo`lib xisoblanadi. Extiyoj – jonli mavjudotning xayot kechirishning konkret shart-sharoitlariga uning qaramligini ifoda etuvchi va bu shart-sharoitlarga nisbatan uning faolligini vujudga keltiruvchi xolatidir. Kishining faolligi extiyojlarning qondirilishi



jarayonida namoyon bo'ladi. Kishining extiyoji uni tarbiyalash jarayonida shakllanadi. Demak, kishining o'z extiyojlarini qondirish jarayoni ijtimoiy taraqqiyot bilan belgilanadigan faoliyat shakli egallashning faol, muayyan maqsadga yo'naltirilgan jarayon sifatida alohida ajralib turadi.

Yoshlarning kasb tanlashi asosan, o'rta maktabdan boshlanadi, shunga ko'ra, o'qituvchilar jamoasi bilan psixologlar oldida turli yoshdagi, jinsdagi maktab o'quvchilarini kasbga qiziqtirish, mehnat qobiliyatlarini rivojlantirish, ichki imkoniyatlarini ishga solish (o'zini-o'zi namoyon etish) kabi muhim vazifa turadi.

Bundan tashqari, psixologlar o'quvchilarning aql-idroki, qobiliyatlarini hamda muayyan kasbga yaroqlilik darajasini aniqlash metodlari, usullari, texnologiyasi, shakllari, mezonlari va tarkibiy qismlarini ishlab chiqishlari, shuningdek, bu sohada ilmiy- tadqiqot ishlari olib borishlari zarur.

O'smirlar va ilk o'spirinlarning kasb tanlashi katta hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan ham shaxsiy, ham ijtimoiy muammo bo'lganligadan bu jarayonda otaonalar, jamoatchilik va turli kasb ustalari ham faol qatnashishlari kerak, chunki yoshlar ko'p hollarda kattalarning maslahatlari va tavsiyalarini hisobga olgan holda qat'iy bir fikrga, qarorga kelishlari mumkin.

Shuni ham aytib o'tish o'rinliki, maktab o'quvchilari kasb tanlash borasidagi o'z qarorlarini, ko'pincha, har tomonlama dalillab bera olmaydilar, biroq ularning ko'pchiligi bu masalaga ongli ravishda yondashishga intiladilar [4]. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishni yosh bosqichlarida o'quvchilarda quyidagi mazmunga ega bo'ladi: Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirishdan asosiy maqsad - ularni mehnat, kasb turlari, yo'nalishlari bilan tanishtirib borish va kasb faoliyatiga qiziqishni shakllantirishdan iborat. 5-7 sinf (o'rta yoshdagi) o'quvchilarini kasbga yo'naltirish mazmuni, ulardagi qiziqish, layoqat, shaxs sifatida jamiyatda tutgan o'rni to'g'risidagi tushunchalar va kasb tanlash ko'nikmasini shakllantirish zarurati bilan belgilanadi. Bo'lg'usi kasbiy faoliyatlar bu yoshdagi o'quvchilar uchun hayotdagi o'z o'rnini belgilash va tayyorlashda turtki, o'z shakllanish imkoniyatlarini ochishi va kasb tanlashi uchun



zarur bo'ladi. Bu yoshdagi o'quvchilarda ijtimoiy-psixologik layoqatlar, o'zi ulg'ayotganligada, yangi bir pozitsiyada o'ziga e'tiborida, atrofga va olamga munosabatida shakllanishi kerak.

8-9 sinf o'quvchilarida kasbga yo'naltirish ishlari mazmuni shaxsning ma'naviy xislatlari va jamiyat oldidagi burchi javobgarlik xislatlarini shakllantirish bilan ajralib turadi. Bu esa ulardan mustaqillik, tashabbus bilan chiqish, mustaqil qaror qabil qilish xatti-xarakatlari natijasini bilishi va faoliyatini nimaga olib kelishini sezishi bilan belgilanadi. 8-9 sinf o'quvchilarida oldingi bosqichlarda olgan bilimlari va tajribalari asosida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha kasbga yo'naltirish faoliyat amalga oshiriladi.

1. O'quv va maxsus fanlarni chuqur o'rganish asosida;
2. Diqqatini tanlagan faoliyatida kasbiy muxim sifatlarini shakllantiririlishida;
3. Kasbiy rejalari ustidan nazorat va ularni asoslanish darajasini ochib berishda;
4. Kasbiy faoliyatga o'zini tayyorlash yo'llari, o'ziga tashxis qo'yish, natijalarini baxolashda;
5. Ijtimoiy kasbiy ko'nikish, kasbni tanlash sabablari, kasbiy yo'nalish asoslari shakllanishida.

XULOSA

O'quvchilarni ta'lim tizimida mustaqil mehnat faoliyatiga puxta tayyorlash va ularning kasb-hunarini o'z qobiliyatlariga yarasha to'g'ri kasb tanlashlariga erishish uchun maktab o'qituvchilarining pedagogik mahorati, bilim saviyasi, didaktik (shuningdek, akademik, tashkilotchilik, pertseptiv va h.k.) qobiliyatlari yuksak bo'lishi, fan asoslarini turmush bilan bog'lab o'rganilishi, to'g'arak va qo'shimcha, yordamchi kurslar oqilona uyushtirilishi, maktablarda kasb-hunar to'g'risida ma'ruzalar o'qilishi, suhbatlar, munozaralar o'tkazilishi, sayohatlar, uchrashuvlar, kasb-hunar fotoko'rgazmalari tashkil qilishlari zarur. Shuningdek, yoshlarning kasb tanlashdagi reallikni vujudga





keltirish maqsadida maktabda ilg`or kasb egalari, kasb faxriylari, kasb sulolalari bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari, kechalar va ma`ruzalar tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo`ladi. Ushbu tadbirlar o`quvchining shu kasbga bo`lgan qiziqishini yanada qat`iylashishini vujudga keltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Карандашев В.Н. Психология введение в профессию. 2- е изд - М.: Смысл, 2003. - 19 с.
2. Nabijonova D. O`quvchilarni kasbga yo`naltirish psixologiyasi. Toshkent: 2002. - 38 b
3. Xaydarov F.I., Xaliliova N.I. "Umumiy psixologiya". - Toshkent: Mumtoz so`z, 2010. – 97 b
4. G'oziev E.G`. Ontogenez psixologiyasi - Toshkent: Noshir , 2010.